



MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI – TALABALARNING «OMMAVIY MADANIYAT»GA TA’SIRCHAN MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHGA YO’NALTIRILGAN FAN

Urazimbetov A.

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Nukus innovatsiya instituti tadqiqotchisi*

Tayanch so'zlar: talaba, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, gloabllashuv jarayoni, milliy-ma'naviy xavfsizlik, ma'naviy-mafkuraviy ta'sir.

Ключевые слова: студент, медиаграмотность, информационная культура, процесс глобализации, национально-духовная безопасность, духовно-идеологическое влияние.

Key words: student, media literacy, information culture, globalization process, national and spiritual security, spiritual and ideological influence.

РЕЗИЮМЕ:

Maqolada talabalar ongida «Ommaviy madaniyat»ga ta'sirchan mexanizmlarini rivojlantirishga «Mediasavodxonlik va axborot madaniyati» fanini o'qitishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

РЕЗИЮМЕ:

В статье представлена информация о значении преподавания «Медиаграмотности и информационной культуры» для развития механизмов влияния на «Общественную культуру» в сознании студентов.

SUMMARY:

The article provides information on the importance of teaching “Media Literacy and Information Culture” for the development of mechanisms of influence on “Public Culture” in the minds of students.

Mamlakatimizda yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan yoshlar bilan ishlash siyosati samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. “... O'zbekistonda barqarorlik, tinchlik va faravonlikni ta'minlashga sezilarli darajada ta'sirini ta'minlash maqsadida yangidan Yoshlar ishlari agentligi faoliyati tashkil yetilgan”[3] va “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yoshlar”[2] ustuvor yo'nalishlari asosida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi istiqbolli bosqishga olib shiqish hamda yoshlarni

manaviyatimizga zid har xil yod g'oyalardan himoyalash bo'yisha vazifalar ishlab shiqilgan. Ushbu yo'nalishlardagi vazifalar ijrosini ta'minlashda pedagogika soha mutaxassislarining yoshlarni turli xil axborot xurujlaridan har tomonlama himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik usullari va ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini ro'yobga shiqarish bo'yisha yangisha ilmiy-amaliy yeshimlarni topish imkoniyatini to'g'dirmoqda.

Davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bugungi kundagi yangi samarali bosqishga olib shiqish zarurligi to'g'risida shunday ta'kidlaydi: "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini yaxshi yegallagan, mustaqil hayotiy va ijtimoiy pozitsiyaga yega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yisha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholisining, birinshi navbatda, yoshlarning ongi, ta'fakkuri va qalbini yegallash ushun qanday keskin ommaviy kurash borayotganini, diniy yekstremizm, terrorism, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi davlatimiz rivojiga qarshi tahdidlar kushayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksinsha ularni yangi bosqishga ko'tarishimiz zarur" [1].

"Pedagogika" ensiklopediyasida "Ommaviy madaniyat (arabsha ommaviy – umumga, umumxalqqa tegishli, oid) – 1. Xalq madaniyati, ma'naviyati, urf-odatilari, marosimlari, an'analari san'ati va shu kabilarni ifodalovshi tushunsha. 2. Ommaviy axborot vositalari rivoji bilan bog'liq jarayon va hodisa. 3. Ommaviy texnologik ishlab shiqarish. 4. Madaniyatning murakkab, hamma vaqt ham bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli" tarzida talqin yetiladi [7].

Tadqiqotlar tahlili "Ommaviy madaniyat"ni G'arb madaniyati bilan shambarshas bog'liq hodisa deb tushunish, shuningdek, uni g'oyasizlik, maqsadsizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholashga oid ilmiy yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Vatanimiz milliy-ma'naviy xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimiz a'zolari ma'naviyatiga, yoshlarimiz axborot madaniyatiga tahdid solayotan tashqi mafkuraviy omillarning obektiv va subektiv jihatlari, g'oyaviy xavf-xatarlarning oldini olishning samarali usullari, vositalari va yo'llarini aniqlash zaruriyati bilan bog'liq.

Birinshidan, gloabllashuv jarayonida jamiyatimiz ijtimoiy ma'naviy hayotga xavf solayotgan xatarlar, tahdidlar o'ziga xos ma'naviy-ahloqiy saviyasiz axborot shaklda namoyon bo'lib, ularning ta'sir kushi kundan-kunga ortib



bormoqda. Jumladan, ja' miyatimiz ushun turli yovuz va vayronkor g'oyalalar, har xil asoslanmagan qarashlarning murakkab sintezi sifatida shiqayotgan ma'naviy tahdidlar jamiyat milliy xavfsizligi doirasida jamiyat ma'naviy xavfsizligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini afsus bilan ta'kidlash lozim. Ma'naviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, paydo bo'lish usullari ijtimoiy oqibatlarini hozirgi zamon nuqtai nazaridan ilmiy o'rganish, ilmiy tahlil yetishda yangisha yondashuvlarni taqozo qilmoqda.

Ikkinshidan, bugungi zamon insoniyat taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya, raqamli vositalarigama'naviy-mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy quroliga aylanib bormoda, ular globallashuv jarayonida tezkor, xilma-xil shakl va usullarda namoyon bo'lmoqda. Bu yesa tashqi ma'naviy tahdidlarning tarixan yangi sifat bosqishiga kirganligini ko'rsatmoqda. Shu bois, buzg'unshi va vayronkor g'oyalarning bugungi davrda namoyon bo'lish xususiyatlarini ijtimoiy-siyosiy jihatdan ilmiy tadqiq yetish katta ahamiyat kasb yetadi.

Ushinshidan, bugungi globallashuv davrida, uning mazmun-mohiyati, ijobiy hamda salbiy jihatlari, xususan, hozirgi kunda yoshlarimizga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida xalqaro maydonda turli siyosiy kushlarning milliy va strategik rejalariga xizmat ko'rsatishga harakat qilayotgani, bundav vaziyatlar orqali milliy ma'naviyatimiz, a'na'nalarimiz qadriyatlarimizga qarshi turli yovuz va vayronkor g'oyalarning tinimsiz yopirilib kelayotgani, ularning hayotimizda yertangi kunda qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Bunday sharoitda mamlakatimizda «Mediasavodxonlik va axborot madaniyati» fanini o'qitishni samarali amalga oshirish g'oyaviy-mafkuraviy hurujlar, tahdidlarning oldini olishning muhim sharti hisoblanadi. Bu borada, Yurtimiz tinshligi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi va rivoji g'oyalariidan tashqi ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda samarali foydalanishning oqilona yo'llarini izlab topish, aniqlash va amaliyotga joriy yetish muhim ahamiyat kasb yetadi [4].

To'rtinshidan, hozirgi dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklari murakkab tus olgan bir davrda yoshlarning ongu tafakkurini mediasavodxonlik va axborot madaniyati asosida shakllantirish va rivojlantirish, tarbiyalash yeng muhim asosiy g'oyaviy vazifadir. Yoshlar turli g'oyaviy obektiv va subektiv omillar ta'sirida ma'naviy tahdidlarning asosiy obektiga aylanib, bugun yoshlar kushli g'oyaviy, mafkuraviy va axborot bosimi ostida yashashga majbur bo'lmoqda. Bugun ana shu tashqi tahdidlarning oshib borishi milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash vazifasini kun dolzarb muammo sifatida tartibiga qo'yimoqda.

Bu ma'naviy tahdidlarning oldini olishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlarimizning hayotiy maqsadlarini, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini, orzu-ideallarini bilish, ma'naviy-axloqiy hayotidagi za'ruriy ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni talab yetadi [6].

Beshinshidan, davlatimizda o'zining ma'naviy-mafkuraviy ta'sir kushiga ko'ra oila, mahalla, uzliksiz ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb yetadi. Hozirgi paytda, ushbu fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy tahdidlarning oldini olish va unga qarshi ommaviy kurashishda muhim o'ringa yega bo'lib hisoblanadi. Shu sababli, ularning kundalik faoliyatida jamiyat ma'naviy milliy xavfsizligi masalalari uyg'unligini ta'minlashni tizimli tahlil qilish orqali mavjud muammo va kamshiliklarning oqilona yeshimlarini topishga xizmat qiladi [5].

Xo'sh, bunday murakkab va shiddatli keshayotgan globallashuv sharoitlarda "ommaviy madaniyat"ning talabalar tarbiyasiga o'tkazayotgan salbiy holatlardan qanday qilib qutilish mumkin?

Bizning fikrimizsha, buning sababi quyidagi yo'nalishlarga asosiy ye'tibor qaratishimiz za'rur:

- milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga yerisha olish. Bunda, asrlar osha qon-qonimizga singib borgan oilani muqaddas saqlash, otanonani ulug'lash, farzandning oila hamda Vatan oldidagi burshi, o'zaro mehr-oqibat, or-nomus, iffat, hayo kabi fazilatlar, ustoz hamda shogirdlar odobi kabi yezgu qadriyatlarga sodiq qolish;

- yoshlar ongini takomillashtirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq hamda kamshiliklarini o'rganish, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish, boshqa xalq vakillarga yaxshi munosabatda bo'lish, ularning madaniyati hamda milliy qadriyatlariga ongli yondasha olish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratiya g'oyalarining aks yetishi;

- tarbiyaviy ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkillashtirishda yoshlarning qiziqish, istak hamda xohishlarini ko'zda tutib, unda har qanday zo'rlik hamda majburlovlardan voz kesho olish, yoshlarning asosiy qiziqishi hamda faoliyat doirasini tashkil qilayotgan turli tuman sohalarni tarbiya jarayonida to'liq qamray bilish. Bu ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks yettira oladigan internet saytlari, multimedia, video rolklarni ko'paytira olish. Yoshlarimizning ongiga ijobiy ta'sir qiluvshi milliy musiqa, kino san'atining tarbiyaviy ahamiyatlaridan foydalanish;

- milliy intellektual salohiyatini oshirish. Buning asosida ta'lim hamda milliy tarbiyani oshirish, urf-odat, an'ana, qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga



uyg'un ko'rinishda yoshlar dunyo qarashining ajralmas qismiga aylantira olish. Yoshlarning siyosiy ongini, axloqiy, huquqiy, yestetik, ma'naviy, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini yuksaltira olish;

- yoshlarda umummillat hamda jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqorida quyishlari, jamiyat hamda millat oldidagi insoniy burshlarini to'liq anglashlari, xalq baxt-saodati va yurt farovonligi yo'lida mehnat qilishlariga yerishish ushun ijtimoiy ham psixologik sharoit oshib berish;

- yoshlarda ma'naviy mafkuraviy immunitetni oshirish, milliy istiqlol g'oya targ'ibotini izshil ravishda davom yettirish.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan jarayonlarning qaror topishi, shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasiga alohida ye'tibor qaratilishi globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonining muvafaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: «O'zbekiston», 2017. –B. 17.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yisha qo'shimsha shora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ–3775-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmon.
4. Juraev R.X., va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi. - Toshkent: O'qituvshi, 2014.-232b.
5. Kurbaniyazova Z., Pazilov A., Qosnazarov Q., Seytmuratov Q. Pedagogika teoriyasi. –Toshkent, 2018. -456 b.
6. Masharipova N.R. Sharq xalqlari pedagogik tafakkurida o'zlik tarbiyasining didaktik vositalari. Ped. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... diss. –Samarqand, 2021. -146 b.
7. Pedagogika: yensiklopediya / Jamoa. III jild. – Toshkent: «O'zbekiston milliy yensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2017. –B. 49.